

HINDISTON TASHQI SIYOSATIDA “GLOBAL JANUB” LOYIHASI

Iskenderova Iroda

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

“Xalqaro munosabatlar” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: siyosiy fanlar doktori (DSc), dotsent **Suhrob Bo‘ronov**

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada “Global Janub” loyihasining shakllanish jarayoni va uning Hindiston tashqi siyosatidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, Hindiston tashabbusi bilan tashkil etilgan “Global Janub ovozi” sammitlarining ahamiyati va Hindistonning ushbu loyihada yetakchilik qilishiga to‘sqinlik qiluvchi omillar hamda mamlakatning “Global Janub”dagi yetakchilikka intilishi uning G20 dagi roli va yumshoq kuch vositalari orqali ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: *Global Janub, Global Shimol, Brandt chizig‘i, VOGSS, ISA, CARICOM, FIPIC*

KIRISH

XXI asrda xalqaro munosabatlar tizimi keskin o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Ayniqsa, geosiyosiy raqobatning kuchayishi, davlatlar o‘rtasida yetakchilik uchun kurashni jadallashtirmoqda. Ushbu jarayonda Hindiston “Global Janub” loyihasi orqali mintaqada yetakchi bo‘lishga intilmoqda. So‘nggi yillarda Hindiston o‘zini “Global Janub” davlatlarining manfaatlarini ifoda etuvchi yetakchi davlat, “Global Janub”ning ovozi sifatida namoyon qilishga harakat qilmoqda. Shu o‘rinda Hindistonning yetakchilikka intilish da‘volarini tahlil qilishdan avval “Global Janub” tushunchasining shakllanish tarixiga nazar solish lozimdir.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Hindiston tashqi siyosatida “Global Janub” loyihasi markaziy o‘rnni egallab kelmoqda. Hindistonning “Global Janub” davlatlari bilan munosabatlarini bir qancha olimlar o‘z maqolalarida keltirib o‘tishgan. Jumladan, Hindiston elchisi va diplomati Ashok Sajanhar o‘zining “Hindiston va Global Janub” nomli maqolasida Hindistonning “Global Janub” bilan siyosiy va iqtisodiy hamkorligi orqali xalqaro maydonda o‘z rolini mustahkamlashga intilayotganini yoritib, Hindistonning diplomatik tashabbuslari va “soft power” vositalari orqali barqaror rivojlanishga qo‘shgan hissasini ko‘rsatadi. Xalqaro munosabatlar va tashqi siyosat bo‘yicha tadqiqotchi Rakesh Arya o‘zining “Hindiston va Global Janub: masalalar, hamkorlik va qiyinchiliklar” nomli maqolasida qayd etishicha, Hindiston va “Global Janub” o‘rtasidagi aloqalarda yuzaga keladigan murakkabliklarni tahlil qilib siyosiy,

iqtisodiy va texnologik tafovutlar hamda mahalliy mintaqaviy ziddiyatlar Hindistonning yetakchilik pozitsiyasini mustahkamlash jarayonini murakkablashtirini keltirib o‘tadi. Yana bir hindistonlik tadqiqotchi Pratap o‘zining “Hindiston va Global Janub: Yangi iqtisodiy kuchning yuksalishiga yetakchilik qilish” nomli maqolasida Hindistonning iqtisodiy kuchini “Global Janub” davlatlari bilan hamkorlik vositasi sifatida ishlatish imkoniyatlarini ko‘rsatadi. Bu investitsiya, savdo va bilim asosidagi iqtisodiy integratsiya orqali namoyon bo‘ladi deb keltirib o‘tadi.

NATIJALAR

1-rasm



“Global Shimol” va “Global Janub” davlatlari xaritasi [1]

“Global Janub” atamasi bu tarixan mustamlakachilik tajribasini boshdan kechirgan va hozirda rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan qo‘llaniladigan umumiy nom sifatida shakllangan. Mazkur atama XX asrning 2-yarmidan boshlab xalqaro siyosiy maydonda keng qo‘llanila boshlangan. “Global Janub” atamasi ilk bor qo‘llanilishi 1955-yilda Indoneziyaning Bandung shahrida bo‘lib o‘tgan Bandung konferensiyasiga borib taqaladi. Bu konferensiya mustamlakachilikdan endigina ozod bo‘lgan yoki ozodlik uchun kurashayotgan Osiyo va Afrika mamlakatlari uchun katta siyosiy voqea bo‘lgan. Konferensiya Indoneziya, Hindiston, Pokiston, Birma (hozirgi Myanma) va Seylon (hozirgi Shri-Lanka) davlatlari tashabbusi bilan tashkil etilgan. Tadbirda jami 29 ta Osiyo va Afrika mamlakati vakillari ishtirok etgan. Bandung konferensiyasining asosiy maqsadi mustamlakachilikka qarshi birlashish, irqchilikka qarshi kurashish, yangi mustaqil davlatlar o‘rtasida do‘stlik va hamkorlikni rivojlantirish, hamda dunyo siyosatida G‘arb yoki Sharq bloklariga qo‘shilmasdan,

betaraf yoʻldan borishni ilgari surish boʻlgan[2]. Konferensiya davomida mustamlakachilik va irqchilikni tugatish, har bir davlatning mustaqilligi va suverenitetini hurmat qilish, millatlar oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, jahon tinchligini saqlash va iqtisodiy tengsizlik va madaniy rivojlanish muammolarini bartaraf etish kabi masalalar muhokama etilgan. Konferensiya Osiyo va Afrika davlatlarining xalqaro maydondagi siyosiy nufuzini oshirdi, ular endilikda mustaqil tashabbus bilan chiqish imkoniga ega boʻldilar.

“Global Janub” tushunchasi iborasi 1960-yillardan boshlab xalqaro siyosiy muomalada keng qoʻllanila boshlagan. Aniqroq aytganda ushbu atamani ilk bor amerikalik yozuvchi Karl Oglesbi keltirib oʻtgan[2]. Shu tariqa “Global Janub” atamasi “Uchinchi dunyo” atamasiga muqobil sifatida qoʻllanila boshlaydi.

Shuningdek, 1980-yillarda “Brandt chizigʻi” paydo boʻlgan. Ushbu chiziq Germaniyaning sobiq kansleri Villi Brandt tomonidan taklif qilingan boʻlib, u dunyoni “Global Shimol” va “Global Janub” davlatlariga ajratadi[3]. Global Shimol nisbatan boy, “Global Janub” esa kambagʻal mamlakatlardan iborat ekanligi haqidagi tasavvurni Brandt chizigʻi yanada mustahkamlagan.

Bugungi kunda “Global Janub” atamasi faqat rivojlanish darajasi past davlatlarni emas, balki xalqaro tizimda oʻz siyosiy ovozigacha ega boʻlgan mamlakatlarni ham anglatadi. Masalan, Hindiston, Pokiston, Braziliya, Meksika, Nigeriya kabi mamlakatlar “Global Janubning” yetakchi kuchlari sifatida maydonga chiqmoqda[4]. Ushbu davlatlarning aksariyati mustamlakachilik tajribasini boshdan kechirgan boʻlib, ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi past yoki oʻrtacha boʻlishi kabi umumiy jihatlari mavjud.

Quyida Hindistonning “Global Janub” loyihasidagi ustunliklari, kamchiliklari, imkoniyatlari va tahdidlarini koʻrib chiqamiz:

Ustunliklar: “Global Janub” loyihasida Hindistonning kuchli jihatlari shundan iboratki, avvalo uning mustamlakachilik tajribasini boshidan kechirganligi va uning “Qoshilmaslik harakati”ning asoschilaridan biri boʻlganligidir. Shuningdek, Hindiston tez oʻsayotgan bozor, texnologiya, farmatsevtika va IT sohalarida yetakchi davlat. Hindiston yalpi ichki mahsulot hajmi boʻyicha dunyoda 5-oʻrinni egallaydi[5]. U “Janub-Janub hamkorligi” (“South-South Cooperation”) orqali “Global Janub” davlatlariga investitsiya, savdo va texnik yordamlar taklif qila oladi. “Janub–Janub” hamkorligi Hindiston tashqi siyosatining muhim yoʻnalishlaridan biri boʻlib, u orqali Nyu-Dehli rivojlanayotgan davlatlarning iqtisodiy, texnologik va institutsional salohiyatini oshirishni maqsad qilgan. Hindiston “Global Janub” loyihasi doirasida Afrika va Lotin Amerikasi mintaqasidagi davlatlarga investitsiyalar kiritadi. Investitsiyalar Hindiston iqtisodiy aloqalarining muhim jihatidir. Shuningdek,

Hindiston rivojlanisha ko'maklashish dasturlari orqali "Global Janub"dagi o'z rolini mustahkamlamoqda. Xususan, Hindiston Texnik va iqtisodiy hamkorligi (ITEC) orqali 160 dan ortiq mamlakatlarga turli sohalarda treninglar o'tkazib, mintaqaning inson resurslari rivojiga hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga, Hindiston "Hindiston-Afrika sammiti", "Hindiston-Tinch okeani hamkorligi forumi" (FIPIC) va "Hindiston-Karib havzasi davlatlari tashkiloti sammiti" (CARICOM) lar orqali u Afrika, Tinch okeani orollari va Janubiy Amerika davlatlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirib, muloqot, rivojlanish va investitsiya aloqalarini kengaytirmoqda[6]. Mazkur muloqot sammitlari orqali o'z mavqeyini mustahkamlashga intiladi.

Hindistonning yumshoq kuch salohiyatini uning tashqi siyosatidagi kuchli jihatlardan biri sifatida baholash mumkin. Hindistonning yumshoq kuchi global miqyosda kuchayib bormoqda. Hindistonning yogasi, Bollivud kinolari, raqslari, bayramlari dunyo bo'ylab mashhurdir. Misol tariqasida, "21-iyun – Xalqaro Yoga kuni" deb e'lon qilinishi nafaqat BMTning yutug'i, balki Hindistonning o'z merosini millatchilik emas, balki umuminsoniy sifatida namoyish etish qobiliyatida burilish nuqtasi bo'ldi[7]. Hindiston yumshoq kuchining eng diqqatga sazovor elementlaridan biri uning madaniy eksportidir, bu yerda an'anaviy hunarmandchilik, oshxona, musiqa va filmlar chegaralardan oshib, YouTube va ijtimoiy media kabi platformalar orqali xalqaro auditoriyaga yetib bordi. Raqamli davrda Hindiston yumshoq kuchi uning diplomatik sa'y-harakatlari va uyushmalarida ham aks etadi. Mamlakat boshqa mamlakatlar bilan aloqalarini boyitish, madaniy aloqalarni rivojlantirish va xalqaro muammolarni hal qilish uchun texnologiyalardan foydalanishda faol ishtirok etmoqda. "Incredible India Campaign", "Startup India Initiative" va "Digital India Programme" kabi tashabbuslar nafaqat iqtisodiyotni yuksaltirdi, balki mamlakatni raqamli innovatsiyalar sohasida yetakchiga aylantirdi[8]. Hindistonning yumshoq kuchining yana bir muhim yo'nalishi – bu dunyodagi eng yiriklaridan biri bo'lgan hind diasporasi. Diasporaning ishtiroki hind madaniyati, qadriyatlari va iqtisodiy manfaatlarini global miqyosda rivojlantirishga yordam berdi. Ma'lumotlarga ko'ra, 35 million hindlar chet ellarda istiqomat qiladi[9]. Hindiston yumshoq kuchining yana bir muhim jihatlardan biri bu yerda talabalarni jalb qiladigan nufuzli universitetlar joylashganligidadir. Masalan, Mumbai universiteti, Gujaratdagi Parul universiteti, Aligarx Muslim universiteti kabi bir qancha universitetlarda chet ellik talabalar tahsil oladi. Hind olimlari tibbiyot, kosmik tadqiqotlar, sun'iy intellekt va qayta tiklanadigan energiya kabi sohalarda muhim yutuqlarga erishib, Hindistonning bilimga asoslangan iqtisodiyot sifatidagi mavqeyini mustahkamlamoqda[10]. Binobarin, Hindistonning yumshoq kuchga asoslangan tashqi siyosati "Global Janub"

loyihasining samaradorligini oshiruvchi asosiy kuchli jihatlardan biri bo'lib, u mamlakatning xalqaro tizimdagi mavqeini mustahkamlashda muhim rol o'ynamoqda.

Kamchiliklar. Hindistonning "Global Janub" loyihasini amalga oshirishdagi zaif jihatlaridan biri mamlakat ichida mavjud bo'lgan chuqur iqtisodiy tengsizlik bilan bog'liqdir. Bu esa uning "Global Janub"da yetakchiligiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, Janubiy Osiyodagi murakkab geosiyosiy muhit, mazkur blokka kiruvchi davlatlar o'rtasida o'zaro ishonchning sustligi, Hindistonning Xitoy bilan raqobati uning tashqi siyosatidagi samaradorligini pasaytiruvchi asosiy omillar sanaladi.

Hindiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar tarixan murakkab va raqobatga asoslangan xarakterga ega bo'lib kelgan. 1940-yillarning oxirida ikkala davlat ham mustaqil bo'lgandan keyin bu davlatlar Osiyo mintaqasidagi pozitsiyalari borasida bir-birlarini dushman deb bilishadi. Ularning raqobati 1947-yilgi Osiyo munosabatlari konferensiyasi va 1955-yilgi Bandung konferensiyasi kabi turli xil Panosiyo forumlarida namoyon bo'lgan. Xitoy va Hindiston Himolay tog'larida va Janubi-sharqiy Osiyoda ta'sir o'tkazish uchun ham raqobatlashgan. Ayniqsa, Tibet masalasida bu muammo yanada keskinlashgan. 1962-yilda ikki davlat o'rtasidagi urushda Hindistonning mag'lubiyati uning bu mintaqadagi ta'sirini sezilarli darajada zaiflashtirgan[11]. Ushbu urushdan keyin Aksay-Chin va Arunachal-Pradesh hal etilmagan chegara masalasi bo'lib, bu hududlarda vaqti-vaqti bilan to'qnashuvlar sodir bo'lib turadi. Jumladan, 2020-yilda Ladax hududida Hindiston va Xitoy qo'shinlari o'rtasida harbiy to'qnashuv sodir bo'ldi.

Hindiston va Xitoy o'rtasidagi raqobatda ularning Shimoliy Afrika mintaqasi uchun raqobatni ham keltirib o'tishimiz mumkin. Har ikki davlat mazkur hududda yirik investitsiya kirituvchi subyektlar hisoblanadi, biroq ularning yondashuvlari sezilarli darajada farqlanadi. Xitoyning Shimoliy Afrikadagi siyosati asosan kreditlash mexanizmlari orqali iqtisodiy ta'sirni kuchaytirishga yo'naltirilgan bo'lsa, Hindiston mintaqada to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar bilan bir qatorda rivojlanishga yo'naltirilgan yordam dasturlari orqali barqaror taraqqiyotni qo'llab-quvvatlashga intiladi[8]. Bugungi kunga kelib Hindiston va Xitoy o'rtasidagi chegara mojaralari hal qilinmaganligiga va ikki davlat o'rtasida raqobat mavjudligiga qaramay, Hindiston va Xitoy o'rtasida munosabatlar butunlay to'xtab qolmagan. Xitoy Hindistonning eng yirik savdo hamkori hisoblanadi. Jumladan, ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasi 2024-2025-yillarda 127 mlrd. AQSh dollariga yetganligini ko'rishimiz mumkin[12]. Bugungi kunda Hindiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlarni "raqobat ichida hamkorlik" deb ta'riflash mumkin.

Hindiston va Xitoy o'rtasidagi raqobat kontekstida Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi savdo aylanmasi ham alohida e'tiborga loyiqdir. Jumladan, Hindistonning

investitsiyalari O'zbekiston va boshqa Markaziy Osiyo davlatlariga Xitoy va Rossiyaga qaraganda nisbatan kamroq. Markaziy Osiyo davlatlarining Hindiston bilan savdo hajmi ham nisbatan past (O'zbekiston-Hindiston 2024-yil 980 mln. AQSh dollari, O'zbekiston-Xitoy 2024-yil 127 mlrd. AQSh dollar). Shuningdek, Hindiston tabiiy resurslar va energetika loyihalariga investitsiya kiritmoqchi bo'lsa-da, ularni amalga oshirish uchun yetarli infratuzilma va qulayliklar doim ham mavjud emas. Masalan, transport va logistika sohasini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Hindiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan bevosita chegaraga ega emas. Bu esa o'z-o'zidan yuklarni Hindistondan Markaziy Osiyoga yetkazib berishda qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi.

Imkoniyatlar. Hindistonning "Global Janub" loyihasidagi imkoniyatlariga uning rivojlanayotgan davlatlar manfaatlarini xalqaro maydonda ilgari suruvchi "ko'prik" vazifasini bajarishda namoyon bo'ladi. Masalan, G20 sammiti doirasida Hindiston "Global Janub" masalalarini iqlim, inklyuziv o'sish va raqamli infratuzilma kabi ustuvor yo'nalishlarda kun tartibiga kiritdi. Bu esa global siyosatda uning ovozini mustahkamlash imkonini beradi. Ayniqsa, "G20"dagi raisligi, "Janub-Janub" hamkorligini kengaytirish tashabbuslari va xalqaro maydondagi pozitsiyasi uning "Global Janub"dagi liderlik da'vosini yanada mustahkamlamoqda. Shu orqali Hindiston o'zini Global Janubning birlik va birdamlikni kuchaytiruvchi markaziy kuch sifatida namoyon qilmoqda. Bu borada G20 sammitlari ham Hindistonning global Janubning "ovozi" sifatida namoyon bo'lishida katta ahamiyat kasb etadi. Hindiston G20ga qo'shilganidan buyon ilk bor guruhga rahbarligi doirasida Hindistonning Nyu-Dehli shahrida "Global Janub ovozi" sammitini o'tkazadi.

"Global Janub ovozi" sammiti – bu Hindistonning rivojlanayotgan mamlakatlarning tashvishlari, manfaatlari va ustuvorliklarini muhokama qilish, g'oyalar va yechimlar almashish hamda rivojlanish yechimlarini yaratishda ovoz va maqsadda birlashish uchun umumiy platforma yaratishga qaratilgan sa'y-harakatlaridir[13]. Bu sammit Hindistonning "Global Janub" bilan hamkorligini yangi bosqichga olib chiqqan.

Bundan tashqari, Hindistonning Xalqaro Quyosh Alyansidagi (International Solar Alliance – ISA) yetakchiligi uning "Janub-Janub" hamkorligi doirasida barqaror rivojlanishni ilgari surishdagi muhim rolini namoyon etadi. 2015-yilda Hindiston va Fransiya tashabbusi bilan tashkil etilgan ISA tropik mintaqadagi davlatlarda quyosh energiyasidan foydalanishni kengaytirish, moliyaviy va texnologik resurslarni safarbar etishga qaratilgan. Bugungi kunda 121 ta a'zo davlatni birlashtirgan, ularning aksariyati Global Janub mamlakatlari hisoblangan ushbu alyans Hindistonning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish hamda qayta tiklanadigan

energiya manbalarini rivojlantirishga sodiqligini yaqqol aks ettiradi[4]. Hindiston “Global Janub” loyihasidagi faolligi orqali global siyosiy va iqtisodiy tizimda o‘z o‘rnini yanada mustahkamlashi mumkin.

Tahdidlar. Hindistonning “Global Janub”dagi yetakchilik da’volari Xitoyning keng ko‘lamli iqtisodiy va infratuzilmaviy tashabbuslari bilan to‘qnash kelmoqda. Xususan, Xitoyning “Bir kamar – bir yo‘l” loyihasi orqali ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarga yirik moliyaviy resurslar, infratuzilma loyihalari va kreditlar taqdim etilishi Hindiston imkoniyatlarini nisbatan cheklab qo‘ymoqda. Hindiston Xitoy bilan bevosita raqobatda bo‘lib, Xitoyning moliyaviy hissasi kattaligi, texnologik ustunligi, siyosiy ta’siri hamda “Global Janub” bilan uzoq yillik hamkorlik tajribasiga ega. Xitoy va Hindiston o‘rtasidagi global siyosiy hamkorlik juda cheklangan bo‘lib, asosan G20, ShHT va BRICS kabi tashkilotlardagi a’zolik doirasidagina namoyon bo‘ladi[14]. Ular o‘rtasida hal etilmagan hududiy nizolar mavjudligi global masalalarda ularni birlashtirishdan ko‘ra ko‘proq ajratib turadi.

Shu bilan birga, yangi ishtirokchilar ham maydonga chiqmoqda. Masalan, Braziliya va Janubiy Afrika, shuningdek, Osiyodagi yana bir kuch — Indoneziya, ayniqsa yangi Prezident Prabowo Subianto davrida davlatning tashqi siyosatda faollashib, yetakchilikka intilmoqda. Bundan tashqari, “Global Janub” davlatlari yagona butun blok emas va manfaatlari hamda maqsadlari doim bir xil bo‘lavermaydi. Hindistonning yetakchi o‘yinchi sifatida qanday yo‘l tutishi, raqobatchilar va fikrdosh davlatlar bilan qanday hamkorlik qilishi hamda “Global Janub”ning ovozi va pozitsiyalarini xalqaro maydonda kuchaytiradigan siyosiy ittifoqlarni shakllantira olishi uning “Shimol” va “Janub” o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaruvchi yetakchi va “Global Janub”ning qudratli vakili sifatidagi rolini belgilab beradi[14]. Mazkur omillarning barchasi Hindistonning “Global Janub” loyihasida yetakchi bo‘lishga to‘sqinlik qiladi.

XULOSA

Umuman olganda, Hindistonning “Global Janub” loyihasida yetakchilikka intilishi bu uzoq muddatli jarayon hisoblanadi. Hindiston o‘zini “Janub ovozi” sifatida namoyon etishga harakat qilayotgan bo‘lsa-da, yuqorida qayd etilgan muammolar uning ta’sir doirasini cheklamoqda. Shunga qaramay, Hindiston o‘zaro tenglik va adolat tamoyillarini ilgari surish orqali o‘z pozitsiyasini ilgari surishga intilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Padhai AI. (n.d.). India and the Global South. Retrieved from <https://padhai.ai/blogs-padhai/india-and-global-south-upsc-exam>

2. Sajjanhar, A. (n.d.). India and the Global South. Embassy of India in Greece. Retrieved from <https://www.indiaingreece.gov.in/section/news/india-and-the-global-south-by-amb-ashok-sajjanhar/>
3. Britannica. (2025). Non-Aligned Movement. Encyclopædia Britannica. Retrieved from <https://www.britannica.com/topic/Non-Aligned-Movement>
4. Big Think. (n.d.). The Brandt Line gave us the Global North and South. It needs an update. Retrieved from <https://bigthink.com/strange-maps/brandt-line-update/>
5. Diplomatist. (2025, January 15). India's rising influence: Leading the Global South's agenda in a multipolar world. Retrieved from <https://diplomatist.com/2025/01/15/indias-rising-influence-leading-the-global-souths-agenda-in-a-multipolar-world/>
6. Embassy of India, France & Principality of Monaco. (2025). Overview of Indian economy. Retrieved from <https://www.eoiparis.gov.in/page/overview-of-indian-economy/>
7. Amaresh, P. (2024, November 30). India's soft power in the digital age: Media, technology and the global knowledge economy. Diplomatist. Retrieved from <https://diplomatist.com/2024/11/30/indias-soft-power-in-the-digital-age-media-technologyand-the-globalknowledge-economy/>
8. Pratap, S. (2025, January 10). India and the Global South: Leading the rise of a new economic powerhouse. Dr. Syama Prasad Mookerjee Research Foundation. Retrieved from <https://spmrf.org/india-and-the-global-south-leading-the-rise-of-a-new-economic-powerhouse/>
9. Handique, I. (2025, August 4). Indian diaspora and remittance flows: Trends, impacts, and perspectives. Vivekananda International Foundation. Retrieved from <https://www.vifindia.org/article/2025/august/04/Indian-Diaspora-and-Remittance-Flows-Trends-Impacts-and-Perspectives>
10. Arya, R. (2025, February 15). India and the Global South: Issues, engagement and challenges. Swadeshi Shodh Sansthan. Retrieved from <https://swadeshishodh.org/india-and-the-global-south-issues-engagement-and-challenges/>
11. Hoover Institution. (n.d.). The Sino-Indian rivalry. Retrieved from <https://www.hoover.org/research/sino-indian-rivalry>
12. Embassy of India, Beijing. (n.d.). Official website. Ministry of External Affairs, Government of India. Retrieved from https://eoibeijing.gov.in/eoibeijing_pages/MjQ
13. Embassy of India, Athens, Greece. (2025, August 13). India and the Global South by Amb Ashok Sajjanhar. Retrieved from

<https://www.indiaingreece.gov.in/section/news/india-and-the-global-south-by-amb-ashok-sajjanhar/>

14. Jain, P. (2025, February 19). The Global South and India: Opportunities and challenges (IDE Policy Brief No. 209). Institute of Developing Economies, Japan External Trade Organization. Retrieved from <https://www.ide.go.jp/library/Japanese/Publish/Reports/AjikenPolicyBrief/pdf/209.pdf>